

## MAKTAB PSIXOLOGINING PROFESSIONAL FAOLIYATINI SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARI VA SHARTLARI

**Turdiyeva Iroda Asliddenovna**

Qoraqolpoq davlat universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14552614>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktab psixologining professional faoliyatini samaradorligi ko'rsatkichlari va uni ta'minlash uchun zarur bo'lgan shartlar tahlil qilinadi.

Psixologning o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar bilan ishlash samaradorligi, metodik yondashuvlari, shuningdek, psixologik xizmatning ta'lim tizimida tutgan o'rni ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** psixolog, rivojlanish, pedagoglar jamoa, jismoniy va aqliy qobiliyat, iqtidorli o'quvchilar.

## INDICATORS AND CONDITIONS OF THE EFFICIENCY OF THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF A SCHOOL PSYCHOLOGIST

**Abstract.** This article analyzes the indicators of the effectiveness of the professional activity of a school psychologist and the conditions necessary for its provision. The effectiveness of the psychologist's work with students, teachers and parents, methodological approaches, as well as the place of psychological services in the educational system are considered.

**Keywords:** psychologist, development, teaching team, physical and mental abilities, gifted students.

## ПОКАЗАТЕЛИ И УСЛОВИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНОГО ПСИХОЛОГА

**Аннотация.** В статье анализируются показатели эффективности профессиональной деятельности школьного психолога и условия, необходимые для ее обеспечения. Эффективность работы психолога с учащимися, педагогами и родителями, методические подходы, а также место психологической службы в системе образования.

**Ключевые слова:** психолог, развитие, педагогический коллектив, физические и умственные способности, одаренные ученики.

## KIRISH

Maktab psixologining professional faoliyati ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ijtimoiy, intellektual va emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda psixologik xizmatning o'rni ortib bormoqda. Shu bilan birga, maktab psixologining ish faoliyatini samarali tashkil etish, uning natijalarini baholash va faoliyatini takomillashtirish zarurati dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabga kelib qolgach, psixologlar ko'pincha amaliyotning ular oldiga qo'ygan muammolaridan dovdirab qoladilar. Shunday ahvolga tushib qolmasligi uchun psixolog avvalo maktabga nima maqsadda borayotganligini aniqlashtirib olishi kerak. Psixologik xizmatning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, psixolog umumiy o'rta ta'lim maktabida quyidagi vazifalarni bajarishi talab etiladi:

1. Bolalarning har-bir yosh bosqichida shaxs sifatida va intellektual jihatdan to'laonli

rivojlanishini ta'minlash, ularda o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish:

2. Har bir bolaga individual yondashuvni va uning psixologik- pedagogik o'rganilishini taminlash:

3. Bolaning intellektual jihatdan va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan chetga chiqishlarni profilaktika qilish.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Shunday qilib, psixolog maktabga avvalo bolalar uchun keladi. Lekin bu psixolog o'qituvchilar bilan ishlamaydi, degani emas.

Psixolog maktabda yengib o'tishi kerak bo'lgan birinchi to'siq - bu maktabning pedagogik jamoasiga qo'shila olishdir. Bordi-yu psixolog bu murakkab organizmga qo'shilib keta olmasa, o'z ishida muvaffaqiyatga erishishi dargumondir.

Psixolog adaptatsion davrining qiyin kechishiga bir necha omil sabab bo'ladi. Ko'pincha o'qituvchilar psixologni bolalarni qanday qilib tarbiyalashni, qanday yashashni o'rgatuvchi inson sifatida ko'rib, dastlabki kezlardayoq unga nisbatan salbiy ustanovkani shakllantirib oladilar.

O'z-o'ziga ishonchi sust bo'lgan o'qituvchilar psixologni go'yo uning kamchiliklarini oshkor etuvchi shaxs sifatida idrok etib, uni qandaydir inspektor sifatida qabul qiladilar. Bular esa psixologning maktab sharoitiga tez ko'nikib, maktab hayotiga chuqur singib ketishga halaqit beradi. Buning oldini olish uchun psixolog o'qituvchilar bilan o'zaro teng munosabatlarga kirishishi, ikkala taraf ham o'zini bilag'on qilib ko'rsatmasligi, eng muhimi bir-birini raqib deb hissohblamasligi zarur. Shunga erishish kerak-ki, o'qituvchilar psixologni ularga yordam bera oladigan boshqa mutaxassis sifatida qabul qilsinlar [2].

Maktabdagi ilk qadamlardan oq psixolog ma'muriyatga ularning faoliyatdoirasiga nimalar kirmasligini, mo'jizalar ko'rsatish uning qo'ldan kelmasligini tushuntirishi lozim.

O'qituvchi bilan bo'lgan suhbatda u yoki bu bolaning muammosi psixologik muammo bo'lmagani uchun u bo'yicha hech narsa qila olmasligini tan olishdan qo'rqmaslik kerak.

Dastlabki qadamlarni qo'yishda ota - onalar bilan aloqa o'rnatish juda muhim. Dastlabki aloqa ixtiyoriy xarakterda bo'lishi va o'zi murojaat qilgan ota-onalar bilan amalga oshirilishi kerak. Buning uchun psixolog alohida kun va soatlarni ajratishi lozim.

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktabida ishni boshlashdan avval psixolog [4]:

1. O'zining pedagoglar jamoasi va maktab ma'muriyati bilan bo'lgan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishi.

2. O'z ishinin g asosiy maqsadi - bu bolaning optimal rivojlanishini ta'minlash ekanini doim yodda saqlashi.

3. O'zining faoliyatida profilaktik ishga u bilan bevosita bog'liq bo'lgan diagnostik va rivojlantiruvchi ishga alohida e'tibor bilan qarashi lozim bo'ladi. Demak, psixologning zamonaviy funksional vazifalari quyidagicha:

a) o'quvchilarning (tarbiyalanuvchilarning) muassasalarda tarbiyalash va o'qitish jarayonida ruhiy, jismoniy (somatik) va ijtimoiy farovonligini muhofaza qilishga yo'naltirilgan kasbiy faoliyatni amalga oshirish [6];

b) Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga muvofiq shaxs huquqlarini himoya qilishga, ta'lim muassasasi ijtimoiy sohasini uyg'unlashtirishga ko'maklashish va ijtimoiy jihatdan ko'nika olmaslik hollari yuzaga kelishining oldini olish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

d) o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar) rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va turli ko'rinishdagi psixologik yordam (psixokorreksiya, rehabilitatsiya va maslahat) berish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish, o'quvchilar(tarbiyalanuvchilar), ota-onalar (ularning o'rmini bosuvchi shaxslar), pedagogik jamoaga aniq muammolarni hal qilishda yordam berish;

e) turli yo'nalish va maqsadlardagi psixologik diagnostikalarni o'tkazish, ruhiy, jismoniy va aqliy, qobiliyat, moyillik, imkoniyat kabi sifatlarni aniqlash uchun testlar o'tkazish, test natijalarini tahlil qilish va baholash;

f) bolalarni birinchi sinfga qabul qilish komissiyasi tarkibida bolalarni olti yoshdan o'qishga tayyorligini aniqlashda ishtirok etish va boshqalar.

Maktab psixologining faoliyati samaradorligini baholashda quyidagi asosiy ko'rsatkichlar e'tiborga olinadi:

**1. Psixologik xizmatning sifat darajasi**

O'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar bilan olib borilayotgan psixologik maslahatlar va treninglarning sifati faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim mezonidir.

**2. O'quvchilar rivojlanishi dinamikasi**

Psixolog tomonidan o'tkazilgan diagnostika natijalariga asoslangan holda, o'quvchilar intellektual va emotsional rivojlanishidagi ijobiy o'zgarishlar samaradorlikning asosiy ko'rsatkichidir.

**3. Psixologik muammolarni aniqlash va hal qilish qobiliyati**

Psixologning o'quvchilarning muammolarini tezda aniqlab, samarali yondashuv orqali ularni hal qila olish qobiliyati faoliyat samaradorligini oshiradi.

**4. Psixologik xizmatning tizimli tashkil etilishi**

Psixologik xizmatning reja asosida olib borilishi va ta'lim jarayoniga integratsiya qilinganligi samaradorlikka ta'sir qiladi.

**1-jadval**

**Psixolog faoliyatining samaradorlik mezonlari**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Tavsifi</b>
Psixologik xizmat sifati	Maslahatlar va treninglarning metodik jihatdan yuqori darajada tashkil etilishi
O'quvchilar rivojlanishi dinamikasi	Intellektual va emotsional rivojlanishda sezilarli ijobiy o'zgarishlar
Diagnostika va muammoni hal qilish qobiliyati	Muammolarni tez aniqlash va yechim topish
Tizimli yondashuv	Faoliyatning rejalashtirilgan va uzluksiz olib borilishi

Maktab psixologining professional faoliyatini samarali tashkil etish uchun quyidagi shartlarni inobatga olish zarur:

Malaka oshirish va o'zini rivojlantirish

Psixolog doimiy ravishda malakasini oshirishi, zamonaviy psixologik metodlarni o'rganishi va amaliyotga joriy etishi lozim. Malaka oshirish seminar va treninglar orqali amalga oshiriladi.

Metodik va texnik ta'minot

Psixologning faoliyatida foydalaniladigan diagnostik vositalar, testlar va trening materiallari yuqori sifatli bo'lishi kerak.

O'quv muassasasida psixologik muhitni qo'llab-quvvatlash

Maktab jamoasi, xususan, o'qituvchilar va ota-onalar psixologik xizmatning ahamiyatini tushunib, psixolog bilan hamkorlik qilishi zarur.

Psixologning yuklamasini me'yorlashtirish

Psixologning ish hajmi me'yorlashtirilgan bo'lishi, bir o'quvchiga ajratilgan vaqt sifatli bo'lishini ta'minlash lozim.

## 2-jadval

### Samaradorlikni ta'minlash shartlari

Shartlar	Tavsifi
Malaka oshirish	Psixologning kasbiy rivojlanishi uchun doimiy trening va o'qituv kurslari
Diagnostik vositalarning sifati	Yuqori sifatli metodik va texnik ta'minot
Jamoaviy hamkorlik	Maktab jamoasining psixologik xizmatga nisbatan ijobiy munosabati
Ish hajmi me'yorlashtirilishi	Psixologning yuklamasini optimallashtirish

## XULOSA VA MUNOZARA

Takliflar: 1. Psixolog quyidagilarni bilishi uchun amaliy seminarlar tashkil etishi lozim:

a) amaldagi umumiy o'rta ta'lim sohasidagi, bolalar huquqlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni;

b) jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni;

d) umumiy va ijtimoiy psixologiya, yosh psixologiyasini, tibbiy psixologiya, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar psixologiyasi xususiyatlarini, bolalar neyropsixologiyasini;

e) psixodiagnostika yutuqlarini, individual farq psixologiyasini, defektologiya asoslarini, psixoterapiya, psixogigiena, kasbga yo'naltirish va mehnat psixologiyasini;

f) tashxislash metodologiyasi va metodikasini, psixopatologiya, individual va guruhlar bo'yicha kasbga maslahat berishning zamonaviy metodlarini, bolaning me'yoriy va noto'g'ri rivojlanishini tashxislash va tuzatishni, xulq etikasi va madaniyatini;

2. Psixolog lavozimiga qo'yilgan malaka talablari: kamida bakalavr darajasidagi maxsus psixologik yoki oliy pedagogik ma'lumotga ega bo'lish.

Maktab psixologining professional faoliyati nafaqat o'quvchilarning emotsional va ijtimoiy holatini qo'llab-quvvatlash, balki ularning intellektual rivojlanishini ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar va o'quv jarayoniga qo'yilayotgan talablar psixologik xizmatning samaradorligini oshirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari sifatida psixologik xizmatning sifati, diagnostika va maslahat ishlarining muvaffaqiyatli tashkil etilishi, o'quvchilar rivojlanishi dinamikasi hamda ta'lim jarayoniga integratsiya qilingan tizimli yondashuv belgilangan.

Maktab psixologining samarali ishlashi uchun bir qator shartlarni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Jumladan, psixologning malakasini oshirish va yangi metodikalarni o'rganishi, diagnostik vositalarning sifatli bo'lishi, psixolog va o'qituvchilar o'rtasida jamoaviy hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, psixologning ish yuklamasini me'yorlashtirish zarur. Bu shartlar ta'minlanganda psixologning faoliyati nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar va ota-onalar bilan ishlashda ham samarali bo'ladi.

Maktab psixologi o'quv jarayonida bir qator funksiyalarni bajaradi: o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash, ularning muammolarini hal qilish, ijtimoiy moslashuvga yordam berish va shaxsiy rivojlanishini rag'batlantirish. Shu bilan birga, psixolog maktab jamoasidagi o'qituvchilar va ota-onalarga o'quvchilarning psixologik holati haqida ma'lumot berib, ularga samarali pedagogik yondashuvlarni tavsiya qiladi. Ushbu jarayon maktabda sog'lom psixologik muhitni yaratishga xizmat qiladi.

### REFERENCES

1. Venera, Mambetiyarova. "PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN CHILDREN AND PARENTS IN ADOLESCENCE." *European International Journal of Pedagogics* 4.05 (2024): 16-19.
2. Venera, Mambetiyarova. "Socio-Psychological Features of Relationships of Children and Their Parents." (2023).
3. Turdimuratova, Nesibeli, and Venera Mambetiyarova. "A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CONCEPTS OF ETHNICITY AND NATION." *Modern Science and Research* 3.9 (2024): 235-239.
4. Mambetiyarova, Venera, and Feruza Xojametova. "ETNIK GURUHLAR PSIXOLOGIYASI TIZIMIDA ETNOSENTRIZMNING YUZAGA KELISH BOSQISHLARI." *Modern Science and Research* 3.12 (2024): 106-110.
5. Bekbergenova, Diynara, Arman Sipatdinov, and Venera Mambetiyarova. "DINNING SHAXS SHAKLLANISHIDAGI O'RNI VA MOHIYATI." *Modern Science and Research* 3.12 (2024): 593-596.
6. Reyimbaevna, Mambetiyarova Venera, and Musaeva Gulnur. "ETNOS VA MILLAT TUSHUNCHALARINING QIYOSIY TAHLILI." *TADQIQOTLAR. UZ* 51.6 (2024): 38-45.
7. Maxsetbaeva, Dilnaz, Arman Sipatdinov, and Venera Mambetiyarova. "MILLIY XARAKTER VA ETNIK IDENTIKLIKNING SHAKLLANISHI VA ULARNING GLOBAL O'ZGARISHLARDAGI ROLI." *Modern Science and Research* 3.12 (2024): 597-600.
8. Reyimbaevna, Mambetiyarova Venera, and Dawletbaeva Gumisay. "PSIXOLOGIK ADAPTATSIYA VA OILA INTEGRATSIYASI." *TADQIQOTLAR. UZ* 51.6 (2024): 34-37.
9. Reyimbaevna, Mambetiyarova Venera, and Jumabayeva Marupa. "OTA-ONA VA FARZANDLAR MUNOSABATINING XUSUSIYATLARI." *TADQIQOTLAR. UZ* 51.6 (2024): 20-23.
10. Tursinbaeva, Jansulu, Arman Sipatdinov, and Venera Mambetiyarova. "TATBIQIY



- IJTIMOIIY PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING AMALIY QO'LLANILISHI." Modern Science and Research 3.12 (2024): 605-608.
11. Ilyasova, Gulnaz, Arman Sipatdinov, and Venera Mambetiyarova. "OILA SHAXS IJTIMOIIYLASHUVIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI MUHIM OMIL SIFATIDA." Modern Science and Research 3.12 (2024): 601-604.
  12. Mambetiyarova, Venera, and Aytbike Oralbaeva. "DIN PSIXOLOGIYASINING ZAMONAVIY FANLAR TIZIMIDAGI TUTGAN O'RNI." Modern Science and Research 3.12 (2024): 100-104.
  13. Reyimbaevna, Mambetiyarova Venera. "ETNOPSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA METODLARI." Modern education and development 15.7 (2024): 304-308.
  14. Rayimbayevna, Mambetiyarova Venera. "PSIXOLOGIK ADAPTATSIYS VA OILA INTEGRATSIYASI." Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari 37.2 (2024): 150-153.
  15. Reymbaevna, Mambetiyarova Venera. "SHAXS TEMPERAMENTINI O'RGANISH METODLARI." MASTERS 2.11 (2024): 9-16.
  16. Reymbaevna, Mambetiyarova Venera. "TATBIQIY SOTSIAL PSIXOLOGIYA." Научный Фокус 2.19 (2024): 47-49.
  17. Venera, Mambetiyarova, and Shodiyorova Fazilat Obid Qizi. "SHAXSNING EMOTIONAL JABHASI VA UNI O'RGANISH METODLARI." Научный Фокус 2.19 (2024): 208-213.
  18. Reymbaevna, Mambetiyarova Venera, and Umirzakova Laylo Mansurjon Qizi. "XARAKTER AKSENTUATSIYASI." Научный Фокус 2.19 (2024): 50-55.
  19. Sipatdinov, Arman, and Venera Mambetiyarov. "KATTA MAKTABGACHA YOSHDA GI BOLALARNING IJTIMOIIYLASHISH JARAYONINI TO'G'RI TASHKIL ETISH SHARTLARI." Modern Science and Research 3.10 (2024): 269-273.
  20. Reyimbaevna, Mambetiyarova Venera, and Nazarov Sulaymon. "RELATIONSHIP OF ADOLESCENT CHILDREN IN THE FAMILY." (2024).
  21. Mambetiyarova, Venera, and Sulaymon Nazarov. "RELATIONSHIP OF ADOLESCENT CHILDREN IN THE FAMILY." Modern Science and Research 3.6 (2024).
  22. Alpamis, Bazarbaev, and Mambetiyarova Venera. "SOCIAL PSIXOLOGIYADA KISHI TOPARLAR PSIXOLOGIYASI." Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari 31.2 (2024): 150-153.
  23. Mambetiyarova, Venera, and Jansulu Tursinbaeva. "PERSONALITY PROBLEM IN SOCIAL PSYCHOLOGY." Modern Science and Research 3.5 (2024): 303-305.
  24. Jansulu, Tursinbaeva, and Mambetiyarova Venera. "SOTSIAL PSIXOLOGIYADA SHAXS MUAMMOSI." (2024).
  25. Reyimbaevna, Mambetiyarova Venera, and Sipatdinov Arman Sharafatdinovich. "GLOBALLASHUV ASRIDAGI YOSHLARIMIZNING O'SMIRLIK DAVRIDAGI OTA-ONALAR BILAN MUNOSABATI." (2024).
  26. Daribaev, Atabay, Arman Sipatdinov, and Venera Mambetiyarova. "THE RELATIONSHIP OF OUR YOUTH IN THE ERA OF GLOBALIZATION WITH THEIR

- PARENTS DURING ADOLESCENCE." Modern Science and Research 3.5 (2024): 245-247.
27. Рейимбаевна, М. В. "ВОЗМОЖНОСТИ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГОВ В РАЗВИТИИ ЖИЗНЕННЫХ ЦЕЛЕЙ У ПОДРОСТКОВ." Inter education & global study 8 (2024): 455-461.
28. Mambetyarova, Venera. "ATA-ANALAR HÁM BALALAR ARASINDAĞI MÚNASEBETLERDİN QÁSIYETLERI." Modern Science and Research 3.10 (2024): 549-551.
29. Mambetyarova, Venera. "PSIXOLOGIK EHTIYOJ." Modern Science and Research 3.12 (2024): 631-634.
30. Rustamovnaning, Muratbaeva Dildora, and Mambetyarova Venera. "OILA TERAPIYASI." PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI 2.10 (2024): 39-41.
31. Aymuratova, Zliyx, and Venera Mambetyarova. "OTA ONALARNING FARZAND TARBIYASIGA E'TIBORI." Modern Science and Research 3.12 (2024): 392-394.
32. Usmanova, Aysholpan, and Venera Mambetyarova. "ATA-ANA HÁM PERZENT MÚNASIBETLERI HÁM TARBIYA USILLARI." Modern Science and Research 3.12 (2024): 469-471.
33. Mambetyarova, Venera, and Mirzagul Dauilbaeva. "MOTIVATSIYA HÁM MOTIVLERDI ÚYRENIWSHI METODLAR." Modern Science and Research 3.12 (2024): 789-792.
34. Mambetyarova, Venera, and Gulbanu Xongrbaeva. "SHAXSTİN BAĞDARLANGANLIGIN ÚYRENIW." Modern Science and Research 3.12 (2024): 842-846.
35. Mambetyarova, Venera, and Inkar Dawilbaeva. "XARAKTER AKCENTUACIYASIN ÚYRENIW." Modern Science and Research 3.12 (2024): 793-795.
36. Mambetyarova, Venera, and Umida Abduraxmanova. "MILLIY XARAKTER VA UNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK SHAKLLANISHI." Modern Science and Research 3.12 (2024): 401-404.
37. Mambetyarova, Venera, and Nursuliw Bekturg'anova. "SHAXSTİN TEMPERAMENTIN ÚYRENIW." Modern Science and Research 3.12 (2024): 761-763.
38. Venera, Mambetyarova, and Seyitbaeva Uljan. "ERKTİN BUZILIWI HÁM ERKSIZLIK MINEZ-QULQI." MODERN SCIENCE 2181 (2024): 3906.
39. Shermatova, Qunduz, Marjona Rajaboyeva, and Venera Mambetyarova. "ETNOPSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA ISHLATILADIGAN METODLAR VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR." Журнал академических исследований нового Узбекистана 1.14 (2024): 148-150.
40. Mambetyarova, Venera, and Gulzar Tursinbaeva. "COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CONCEPTS OF ETHNOS AND NATION." Modern Science and Research 3.12 (2024): 47-50.